

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 338.45(575.1)**

KASIMOV AZAMAT ABDUKARIMOVICH

**SANOAT TARMOG‘I IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy maslahatchi:
i.f.d., prof. N.M. Maxmudov**

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. SANOAT TARMOG'I IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	16
1.1. Sanoat tarmog'i iqtisodiy samaradorligining nazariy jihatlari va uning amaliy mohiyati	16
1.2. Sanoat tarmog'i iqtisodiy samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar tasnifi va ularning o'zaro bog'liqligi	28
1.3. Xorijiy davlatlarning sanoatda samaradorlikni oshirish bo'yicha ahamiyatga molik tajribalari	43
Birinchi bob bo'yicha xulosalar	58
II BOB. SANOAT TARMOG'I IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	60
2.1. Sanoat tarmog'ini rivojlanтирish va unda samaradorlikni oshirishning me'yoriy-huquqiy hamda institutsional asoslari	60
2.2. Sanoat tarmog'i iqtisodiy samaradorligini baholash usullari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari	72
2.3. Sanoat tarmog'i iqtisodiy samaradorligini oshirish metodologiyasi va uni takomillashtirish	91
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	107
III BOB. SANOAT TARMOG'I IQTISODIY SAMARADORLIGI HOLATI VA UNING TAHLILLARI	110
3.1. O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida sanoat tarmog'ining o'rni va uning rivojlanish bosqichlari tahlili	110
3.2. Sanoat tarmog'i iqtisodiyoti va uning tarkibiy dinamik o'zgarishlarini baholash	124
3.3. Sanoat tarmog'i iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tanlash va tahlil qilish usullari	138
3.4. Sanoat tarmog'i iqtisodiy samaradorligini oshirish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish	154
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar	170
IV BOB. SANOAT TARMOG'I IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	172
4.1. Sanoat tarmoqlarini samarali joylashtirish mexanizmlari va yo'llari	172
4.2. Sanoat tarmog'ida investitsion va innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etish yo'llari va bunda davlat dasturlarini ahamiyati	190
4.3. Sanoat tarmoqlarini tarkibiy o'zgarishlar asosida maqbullashtirish va samaradorlik ko'rsatkichlarining prognoz ssenariylari	209
To'rtinchi bob bo'yicha xulosalar	227
Xulosa	230
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	238
Ilovalar	258

Kirish (doktorlik dissertatsiyasi (DSc) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global raqobatning kuchayishi sharoitida iqtisodiyotning rivojlanishi va aholi hayoti farovonligini ta'minlashda sanoat tarmog‘ining ahamiyati oshib bormoqda. “Sanoat tarmog‘ining YaIMdagi ulushi Germaniyada 24,4 foiz, Norvegiyada 37,5 foiz, Polshada 25,2 foiz, Shveysariyada 20,7 foiz, Italiyada 20,4 foiz, Qozog‘istonda 28,6 foiz, Ozarbayjonda 44,5 foizni tashkil etadi”¹. Xalqaro tajribalar sanoat rivojlanishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, aholi turmush farovonligini oshirishi va bandlik muammolarini bartaraf etishda ham muhim ekanligini ko‘rsatmoqda. Xususan, “jahonda jami bandlikning o‘rtacha 24 foizi sanoat hissasiga to‘g‘ri kelsa, mazkur ko‘rsatkich Xitoyda 32 foiz, Germaniya va Italiyada 27 foiz, Yaponiyada 24 foiz, Turkiyada 28 foiz va Qozog‘istonda 22 foizga yetadi”². Bu esa jahonda sanoat tarmog‘i iqtisodiy samaradorligini oshirish muammosining dolzarbligini namoyon etadi.

Jahonda kechayotgan global inqiroz va geosiyosiy vaziyatning hozirgi sharoitida sanoat tarmog‘ida iqtisodiy va texnologik samaradorlik darajasini oshirish masalalariga yo‘naltirilgan qator izlanishlar olib borilmoqda. Sanoat tarmog‘ida mehnat va boshqa iqtisodiy resurslar samaradorligini oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, tarmoq samaradorligining uzoq muddatli farovonlikka ta’sirini baholash, global iqtisodiyot tarkibiy o‘zgarishlariga sanoatning moslashuvchanligini ta'minlash, sanoat ishlab chiqarishida raqamlashtirish, zamonaviy innovatsion ishlanmalar salmog‘ini oshirish kabi masalalar bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda sanoat tarmog‘iga alohida e’tibor qaratilmoqda. “2023-yilda YaIMda sanoat mahsulotlarining qo‘shilgan qiymati 26,7 foizni va uning qo‘sishida eng yuqori ulush 1,4 foiz aynan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelgan, sanoatga qurilishni

¹ <https://w3.unece.org/PXWeb/ru/CountryRanking?IndicatorCode=11>

² <https://data.worldbank.org/indicator/SL.IND.EMPL.ZS>

qo'shgan holda esa ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 33,4 va 2,7 foizni tashkil etadi"³. Shu boisdan, mamlakatda keyingi yillarda sanoatning mavjud salohiyatlaridan samarali foydalanish va yanada rivojlantirish, sanoat ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va mahsulotlarni diversifikatsiyalash, jarayonlarni raqamlashtirish, investitsion jozibadorligini oshirish, mavjud omillardan samarali foydalanish asosida tarmoq samaradorligini oshirish hisobiga iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash, bandlikni ta'minlashda sanoatning ulushini oshirish bo'yicha jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida "Sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish, sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 million yuqori daromadli ish o'rinalarini yaratish, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish"⁴ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash mamlakatdagi mavjud sanoat salohiyatini chuqur tahlil qilish, ulardan samarali foydalanish va yanada barqaror rivojlanishini ta'minlash, unga ta'sir qiluvchi omillarni tanlash va holatini iqtisodiy jihatdan baholash, shuningdek istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish orqali ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2023-yil 12-oktabrdagi "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-169-son, 2022-yil 13-iyuldagagi "Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyati samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-153-son Farmonlari, 2022-yil 12-oktabrdagi "Sanoat ishlab chiqarishida xom ashyo uzlusizligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha

³ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti. - www.stat.uz

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli farmoni. www.lex.uz

qulayliklarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-392-son, 2022-yil 24-yanvardagi “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-99-son qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁵. Jahon miqyosida sanoatni barqaror rivojlantirish va samaradorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash, jumladan sanoat tarmoqlarida resurslardan samarali foydalanish, tarmoq korxonalari va resurslarning iqtisodiy samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar, jumladan United Nations Conference on Trade and Development (Shveysariya), Bureau of Economic Analysis (AQSh), Federal Statistical Office under the Ministry of Interior of Germany (Germaniya), The International Investment Funds Association (Kanada), The World Bank (AQSh) hamda jahonning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlari hisoblangan University of Oxford (Buyuk Britaniya), University of California (AQSh), Yonsei University (Koreya Respublikasi), American University (AQSh) kabi xalqaro tashkilotlar, Московский государственный университет экономики, Российской экономический университет им. Г.В.Плеханова (Rossiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (O‘zbekiston) tomonidan olib borilmoqda.

⁵ Dissertatsianing mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida tuzilgan: United Nations Conference on Trade and Development - <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>; Bureau of Economic Analysis - <https://www.bea.gov/>; Federal Statistical Office under the Ministry of Interior of Germany - <https://pages.devex.com>; The International Investment Funds Association - <https://iifa.ca/>; The World Bank - <https://www.worldbank.org>; American University - <https://www.american.edu/cas/economics/>.

Jahonda sanoat tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish asosida baholash natijalarining aniqlik darajasini oshirish hamda tarmoq iqtisodiy samaradorligini oshirish metodologiyalarini yanada takomillashtirish orqali umumiy samaradorlikni oshirishga erishish, sanoatning drayver tarmoqlarini boshqarish va samarali faoliyatini tashkil etish hamda ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishga oid tadqiqotlar asosida, jumladan quyidagi natjalarga erishilgan: sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish resurslardan samarali foydalanish asosida mavjud salohiyatlarni ishga solish, sanoatni barqaror rivojlanishiga erishishda mehnat va kapital resurslaridan unumli foydalanish uslubiyotlari ishlab chiqilgan (United Nations Conference on Trade and Development); sanoat tarmoqlarida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini statistik baholash uslubiyoti takomillashtirilgan (The International Investment Funds Association); sanoat korxonalarida tarkibiy dinamik o‘zgarishlarini baholash usullari hamda tarmoq korxonalari samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar ta’sirini baholashning iqtisodiy statistik usullarini ishlab chiqish bo‘yicha metodologik yondashuvlar ishlab chiqilgan (American University); sanoat tarmog‘i korxonalirining iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari baholangan (University of California); sanoat tarmoqlarini optimal joylashtirish va samarali faoliyatini ta’minlashda innovatsion usullardan foydalangan holda samarali tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha uslubiy yondashuvlar taklif etilgan (Yonsei University); sanoat korxonalarida investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda uni amalga oshirish uslubiyoti takomillashtirilgan (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова).

Jahonda tobora tugab borayotgan resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash, bunda sanoatning rolini oshirish, xususan energiya va resurs tejamkor texnologiyalar hisobiga sanoatda samaradorlikni oshirish, sanoatga kiritilayotgan investitsiyalarni moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda mazkur jarayonlarni baholashning uslubiy jihatlarini takomillashtirish, sanoat korxonalarida texnologik samaradorlikning maksimal darajasiga yetkazish, iqtisodiy faoliyat

yo‘nalishlari bo‘yicha resurslar sarfini optimallashtirish, samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash va ularni oshirishning ilmiy asoslangan yo‘llarini ishlab chiqish hamda bu borada ilmiy metodologik asoslarni takomillashtirish yo‘nalishlarida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sanoat tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy tadqiqotlari, tarmoq samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari, jumladan sanoat korxonalarida samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va uni oshirishning ilmiy metodik usullarini ishlab chiqish masalalari xorijlik olimlardan Marshall A., Church J., Ware R., Weightman G., Stigler G.J., Grömling M., Qu Y., Wadegaonkar D.W., Groumpo P.P., Chen X., Eder M.A., Shihavuddin A., Zheng D.A., Barbero M.I., Rocchi F., Dewi R., Hamid R.S., Sismar A., Bachtiar R.E.P., Moonai S., Wang J., Ma J., Anahit G.T., Grömling M., Shahnavazi A. va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan⁶.

Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida sanoat tarmog‘ining o‘rnini baholash, tarmoq iqtisodiyoti va uning tarkibiy dinamik o‘zgarishlarini ilmiy tadqiq etish hamda samaradorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash yo‘llarining ilmiy asoslarini yaratish va metodlarini takomillashtirish yo‘llari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlari Руденко А.И., Александровича Я.А., Животовская А.Г., Идрисов Г., Андрианов К.Н., Оводкова Т.А., Котылева

⁶ Marshall A. Industry and Trade: A Study of Industrial Technique and Business Organization; and of Their Influences on the Conditions of Various Classes and Nations. Harvard University. – Macmillan – 2005. – 874 p.; Church J., Ware R. Industrial Oranization. A Strategic Approach. Irwin. 2000. – 960 p.; Weightman G. The Industrial Revolutionaries: The Making of the Modern World 1776-1914. Paperback – Grove Press, May 25, 2010; Stigler G.J. Essays in the History of Economics, Chicago and London: The University of Chicago Press, 1965. p.97; Grömling M. Hartnäckige Produktionslücken der deutschen Industrie, IW-Report 41/2023; Qu Y. The Productivity Differences and the Losses of Allocative Efficiency of China’s Industries, World Economic, 39, 2016, p.121-142; Wadegaonkar D.W. Concept of Industry // Journal of the Indian Law Institute. V. 23, No. 3, July-Sept. 1981, p. 21; Groumpo P.P. A Critical Historical and Scientific Overview of all Industrial Revolutions // IFAC-PapersOnLine. Volume 54, Issue 13, 2021, Pages 464-471; Chen X., Eder M.A., Shihavuddin A., Zheng D.A. Human-Cyber-Physical System Towards Intelligent Wind Turbine Operation and Maintenance // Sustainability 2021, 13, 561; Barbero M.I., Rocchi F. Industry. UBA, UTT, - 2003. Matleena Kniivilä. The Importance of Industry in Modern Economies of the Globalized World in the 21st Century. January 2021, SHS Web of Conferences 92(4):04021, p. 299; Dewi R., Hamid R.S., Sismar A., Bachtiar R.E.P., Moonai S. (2023). The Role of Innovation Orientation in Improving Marketing Communication and Marketing Performance of Micro, Small, and Medium Enterprises (MSMEs) in the Culinary Sector. Kontingenzi: Jurnal Ilmiah Manajemen, 11(1), 370-376; Wang J., Ma J. Evaluation and driving factors of land use economic efficiency in China’s urban agglomerations under the impact of COVID-19 epidemic // Front Public Health. 2022; Anahit G.T. Identifying the Relation between the Factors Contributing to the Economic Efficiency of Investments in the Industrial Sector of the RA // Регион и мир, 2022, № 6. 137-143 с.; Grömling M. Herausforderungen der Industrie am Standort Deutschland // Bundeszentrale für politische Bildung. CC BY-NC-ND 3.0, 2024; Shahnavazi A. (2017). Determining the efficiency rank of irrigated crops in Iranian agricultural sector. Iranian Journal of Agricultural Economics and Development Research, 48 (2), 227-240.

Н.Ю., Калита Н.С., Манцуров Г.И., Бобошко В.И., Дуб П.И., Кифоренко И.К., Рыбаков М.Б., Сарыева М.Б., Аллакулыва М.А., Штеле Е.А., Ильминская С.А., Сыщикова Е.Н., Грищенко Н.В., Долженко Р.А., Куклина Е.А., Левина Д., Beliak A. va boshqalar tomonidan o‘rganilgan⁷.

O‘zbekistonda sanoat tarmog‘ining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha alohida tarmoqlar, xususan to‘qimachilik, qurilish, mashinashozlik kabilar samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, baholash va rivojlantirishning ilmiy uslubiy hamda uning metodologik asoslarini takomillashtirish masalalari Iskandarov I., G‘ulomov S.S., Maxmudov E.X., Tursunxodjayev M.L., Ortiqov A., Maxmudov N.M., Salimov B.T., Qodirov A.M., Muradova Sh.N., Isayev R.A., Abdullayeva M.N., Qambarov J.X., Xotamov I.S., Rustamov N., Pulatova M.B., Xasanova G.D. kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan⁸.

⁷ Руденко А.И., Александровича Я.А. Экономика предприятия в условиях рынка. Учеб. пособ. - М. 2003.; Животовская А.Г. Организационно-экономический механизм развития промышленного сектора экономики. Диссертация. к.э.н., М.: – РЭУ, -2020, ст. 29; Идрисов Г. Промышленная политика России в современных условиях. – М.: Изд-во Ин-та Гайдара, 2016. – 160 с.; Андрианов К.Н. и др. Промышленная политика в условиях новой индустриализации. Монография. - М.: МАКС Пресс, 2015. - 252 с.; Оводкова Т.А. Роль промышленной политики в развитии современной экономики России. Автореферат дисс. на к.э.н., Т.: -ТГУ, 2006г. 13 ст.; Котылева Н.Ю. Экономическая эффективность деятельности промышленных предприятий, ее оценка и прогнозирование в современных условиях хозяйствования. Дисс. автореф., Орел.- 1998 г. 176 с.; Калита Н.С., Манцуров Г.И. Социалистическое производственное объединение. М.: Экономика, 1972. С.91; Бобошко В.И. Разработка механизма эколого-экономического регулирования деятельности малых предприятий: теория, методология, практика. Автореферат докторской диссертации. – М., 2009. 23 с.; Дуб П.И. Повышение экономической эффективности промышленного предприятия на основе мотивации труда. Автореферат дисс., В.: ВГУ, 2006, 8 с.; Кифоренко И.К. Повышение экономической эффективности промышленного предприятия на основе совершенствования маркетинговой деятельности. Автореферат дисс. на к.э.н., С.: СГТУ, 2010, 20 с.; Рыбаков М.Б. Модели оптимизации и оценки эффективности операционной деятельности предприятий ОПК в условиях цифровой трансформации. Диссертация на к.э.н., М.: РЭУ. 2022. 179 с.; Сарыева М.Б., Аллакулыва М.А. Роль промышленности в экономике // Международный научный журнал «Символ науки» № 4-2, 2023. 119 с.; Штеле Е.А. и др. К вопросу о понятии «Эффективность» // Экономический анализ: теория и практика, 2017, т. 16, вып. 5, стр. 935–947; Ильминская С.А. Эффективность экономики: критерии и показатели // Вестник ОрелГИЭТ, 2010, №4(14), ст.104; Сыщикова Е.Н. Факторы и условия повышения эффективности производства // Выпуск: № 8 (39), 2015; Грищенко Н.В. Методика оценки экономической эффективности формирования корпоративных образований в пищевой промышленности // Вестник ВГУИТ, №4, 2014. 268-269 с.; Долженко Р.А. и др. Методика повышения организационной эффективности предприятия // МИР (Модернизация. Инновации. Развитие). 2023. Т. 14. № 1. 76-93 с.; Куклина Е.А., Левина Д. Методы повышения экономической эффективности деятельности предприятия в современных условиях: мировой опыт и российская практика // "Экономика и социум" №6(49) 2018. 667 с.; Beliak A. Comparative analysis of the concept of «organizational and economic mechanism» in the modern scientific space // International Science Journal of Management, Economics & Finance. Vol. 2, No. 2, 2023, p. 38-47.

⁸ Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. darslik. – T.: “Sano-standart”, 2014. – 5 b.; Maxmudov N.M. va boshq. Investitsiyalardan samarali foydalanish asosida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish. Monografiya – GlobeEdit, 2021 y. – 233 b.; Salimov B.T. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning hududlar bo‘yicha qiyosiy tahlili va uni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. №3, 2018, 11 b.; Pulatova M.B. Sanoat korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo‘llari. diss. avtoreferati. Toshkent-2018. - 14 b.; Xasanova G.D. Промышленность - ведущая отрасль национальной экономики (на примере Бухарской области Республики Узбекистан) // Молодой ученый. - 2016. № 13 (117). с. 532-535.

Yuqoridagi tadqiqot ishlari sanoat tarmog‘ini barqaror rivojlantirish, uning ko‘rsatkichlarini baholash va samaradorlik darajasini yanada oshirishga xizmat qiladi. Ammo, yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlarda sanoat tarmog‘ining aynan iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy va metodologik asoslarini takomillashtirish alohida tadqiqot predmeti sifatida ko‘rib chiqilmaganligi mazkur mavzuning tadqiqot ishi sifatida tanlanishiga asos bo‘ldi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F1-154-son “Milliy iqtisodiyot tarkibiy o‘zgarishining yalpi ichki mahsulot o‘sishiga ta’sirini baholash metodologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sanoat tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sanoat tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligining mazmunini ilmiy-nazariy jihatdan ochib berish hamda uning amaliy mohiyatini yoritish;

sanoat tarmog‘i iqtisodiy samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish, tasniflash, guruhlash va ularning o‘zaro integratsiyasini ilmiy asoslash;

sanoatda yuqori samaradorlikka erishish bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o‘rganish va O‘zbekiston sharoitida ulardan samarali foydalanish yo‘llari bo‘yicha takliflar berish;

sanoat tarmog‘ini rivojlantirish, unda samaradorlikni oshirishning institutsional asoslari va tamoyillarini o‘rganish, tahlil qilish va sanoatni rivojlantirish borasida institutsional asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish;

sanoat tarmog‘i iqtisodiy samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish va uni oshirish metodologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha taklif berish;

O‘zbekiston iqtisodiyotida sanoat tarmog‘ining roli, uning hozirgi holati va tarkibiy dinamik o‘zgarishlarini statistik jihatdan baholash;

sanoat tarmog‘i iqtisodiy samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni tanlash va tahlil qilish, mazkur jarayonlarni ekonometrik modellashtirish asosida konseptual model ishlab chiqish;

sanoat tarmoqlarini joylashtirish tamoyillari va omillarini ilmiy tadqiq etish asosida ularni samarali joylashtirish tartibi bo‘yicha nazariy takliflar va mexanizmini ishlab chiqish;

sanoat tarmog‘ida investitsion va innovatsion jarayonlarni tahlil qilish, texnologik tarkibini tadqiq etish hamda samarali foydalanishning ilmiy asoslari bo‘yicha tavsiyalar berish;

sanoat tarmoqlarini tarkibiy o‘zgarishlar asosida maqbullashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berish hamda samaradorlik ko‘rsatkichlarining prognoz ssenariylarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’yekti bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi sanoat tarmog‘ining iqtisodiy faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib sanoat tarmog‘ini barqaror rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, mantiqiy fikrplash, empirik tahlil, statistik tahlil va sintez, statistik kuzatish va jamlash, jadval, grafik tahlil, guruhlash, taqqoslash, dinamika qatorlari, prognozlash, iqtisodiy-matematik va ekonometrik usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “sanoat tarmog‘i iqtisodiy samaradorligi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni samaradorlik omillari manbasi, xususiyati va mezonlari bo‘yicha tasniflash, sanoat tarmog‘ining jadal rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligiga ta’siri hamda o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi, samaradorlikka ta’sir etuvchi integral omillar tarkibini aniqlash asosida takomillashtirilgan;

sanoat tarmog‘ining umumiqtisodiy samarasini ifodalovchi asosiy va aylanma fondlar hamda innovatsion samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash usullari takomillashtirilib, ular asosida baholashning “nolga teng” ($E_i = 1$), “past” ($0 < E_i < 1$), “o‘rta” ($E_i = 0$) va “yuqori” ($-\infty < E_i < 0$) chegaraviy mezonlari ishlab chiqilgan;

sanoat tarmog‘ining iqtisodiy holatini kompleks baholash, ko‘rsatkichlar va omillarni aniqlash o‘zaro ta’sirini modellashtirish, joylashgan muhitini har tomonlama tahlil qilish, resurslardan samarali foydalanish hamda iqtisodiy samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan Sanoat siyosatini amalga oshirish va sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish bo‘yicha loyiha ofisi faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklifi asoslangan;

sanoatni rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan sanoat korxonalarini obligatsiyalarining to‘lanadigan yillik daromad miqdori milliy valyutada, qarz oluvchining xatarlarini hisobga olgan holda, milliy valyutadagi suveren obligatsiyalari stavkasidan past bo‘lmagan miqdorda, kapital rentabelligi (ROE) 15 foizdan kam bo‘lmagan shartlarda sotib olinishini ta’minlash orqali sanoat ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish taklifi asoslangan;

O‘zbekistonda sanoat tarmog‘ining samaradorligini ifodalovchi miqdoriy va nisbiy asosiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligi asosida 2030-yilga mo‘ljallangan prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sanoat tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligiga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillar guruhlarga ajratilib, tarkibiy qismi va ularning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan;

sanoat tarmog‘ini rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirishning institutsional asoslari hamda tamoyillari, shuningdek sanoatni rivojlantirish borasida institutsional asoslarni takomillashtirish borasida amaliy tavsiyalar berilgan;

sanoat tarmog‘i iqtisodiy samaradorligini baholash usullarining takomillashtirilgan variantlari va ularning chegaraviy mezonlari ishlab chiqilgan hamda tarmoq samaradorligini oshirish bo‘yicha metodologiya taklif etilgan;

O‘zbekiston iqtisodiyotida sanoat tarmog‘ining iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil qilinib hozirgi holati va tarkibiy dinamik o‘zgarishlari statistik usullar asosida baholab berilgan;

sanoat tarmog‘i iqtisodiy samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni tanlashning samarali yondashuvlari va ularning ta’siri ekonometrik modellashtirilib, konseptual model ishlab chiqilgan;

sanoat tarmoqlarini samarali joylashtirish tamoyillari va shu asosida tarmoq samaradorligini oshirishning mexanizmi ishlab chiqilgan hamda amaliy tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya natijalarining ishonchliligi muallif tomonidan tadqiqot ishiga doir xorijiy hamda mahalliy olimlar olib borgan ilmiy-nazariy, metodologik tadqiqotlariga asoslangani, foydalanilgan axborotlar bazasining ishonchliligi ularning rasmiy manbalardan olinganligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning ishonchliligi tarmoq samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha qabul qilingan ustuvor yo‘nalish va dasturlarga muvofiqligi hamda tegishli xulosalarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sanoat tarmog‘i iqtisodiy samaradorligini oshirishning metodologiyasini takomillashtirish va ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar berish, tarmoq samaradorligini oshirish jarayonlarini omilli tahlil qilish, iqtisodiy samaradorlikni baholash va prognoz qilishda uslubiy asos sifatida xizmat qilishi bilan tavsifланади.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada tatbiq etilgan uslub va modellardan sanoat tarmog‘i iqtisodiy samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha muammolarni aniqlash, tahlil qilish, tarmoq va sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish hamda sohaga oid kelgusida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat tarmog‘i iqtisodiy samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “sanoat tarmog‘i iqtisodiy samaradorligi” tushunchasining iqtisodiy mazmunini samaradorlik omillari manbasi, xususiyati va mezonlari bo‘yicha tasniflash, sanoat tarmog‘ining jadal rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligiga ta’siri hamda o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi, samaradorlikka ta’sir etuvchi integral omillar tarkibini aniqlash asosida takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliv o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Sanoat iqtisodiyoti” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 29-sentabrdagi 314-sonli buyrug‘i). Ushbu taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida talabalarda samaradorlik omillarini tasniflash, sanoat tarmog‘ining jadal rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligiga ta’siri hamda o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi, samaradorlikka ta’sir etuvchi integral omillar tarkibini aniqlash asosida takomillashtirilgan “sanoat tarmog‘i iqtisodiy samaradorligi” tushunchasining iqtisodiy mazmuniga oid nazariy bilimlarni yanada kengaytirish imkoniy yaratilgan;

sanoat tarmog‘ining umumiqtisodiy samarasini ifodalovchi asosiy va aylanma fondlar hamda innovatsion samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash usullari takomillashtirilib, ular asosida ishlab chiqilgan baholashning “nolga teng” ($E_i = 1$), “past” ($0 < E_i < 1$), “o‘rta” ($E_i = 0$) va “yuqori” ($-\infty \leftarrow E_i < 0$) chegaraviy mezonlari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 26-iyundagi 02/26-1-3-13282-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklif amaliyatga joriy etilishi natijasida sanoat tarmoqlarida resurslar samaradorligini baholash va shu asosida olinadigan xulosalarning aniqlik darajasining 10-15 foizga yaxshilanishiga erishilgan;

sanoat tarmog‘ining iqtisodiy holatini kompleks baholash, ko‘rsatkichlar va omillarni aniqlash o‘zaro ta’sirini modellashtirish, joylashgan muhitini har tomonlama tahlil qilish, resurslardan samarali foydalanish hamda iqtisodiy samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan Sanoat siyosatini amalga oshirish va

sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish bo‘yicha loyiha ofisi faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi PF-169-son “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 26-iyundagi 02/26-1-3-13282-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida sanoat tarmog‘ini samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilish, resurslardan samarali foydalanish, tarmoq holatini kompleks baholash va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoniyati yaratilgan;

sanoatni rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan sanoat korxonalarini obligatsiyalarining to‘lanadigan yillik daromad miqdori milliy valyutada, qarz oluvchining xatarlarini hisobga olgan holda, milliy valyutadagi suveren obligatsiyalari stavkasidan past bo‘lmagan miqdorda, kapital rentabelligi (ROE) 15 foizdan kam bo‘lmagan shartlarda sotib olinishini ta’minalash orqali sanoat ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-yanvardagi 18-son qaroriga 1-ilova “Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risida” nizomda o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 26-iyundagi 02/26-1-3-13282-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida sanoat tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligiga omillar ta’sirini baholashda 7-8 foizga unumdarlikning oshishi ta’milangan;

O‘zbekistonda sanoat tarmog‘ining samaradorligini ifodalovchi miqdoriy va nisbiy asosiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligi asosida ishlab chiqilgan 2030-yilga mo‘ljallangan prognoz ssenariylari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 26-iyundagi 02/26-1-3-13282-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida sanoat tarmog‘ida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning chora-tadbirlari va prognozlari

asosida uzoq muddatli davrdagi istiqbol ko‘rsatkichlarning o‘zaro muvofiqligini ta’minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatasiysi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilimiylashlarda 13 ta maqola, ulardan 2 ta maqola xorijiy jurnallarda va 11 ta maqola mahalliy jurnallarda hamda 1 ta monografiya nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 250 betni tashkil etadi.